

# Navoi elektr uzatmasini yangilash

**Mamlakat:** O'ZBEKISTON

**Loyiha raqami:** 50691

**Faoliyat sohasi:** Energetika

**Xabarnoma turi:** DAVLAT

**Ekologik toifasi:** A

**Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:** 2019-yil, 13-noyabr

**Qaysi bosqichda ekanligi:** Konsepsiya ko'rib chiqilgan

**Loyihaning qisqacha mazmuni (LQM) chop etilgan sana:**

## Loyiha mazmuni

YTTB O'zbekistonning shimoli-g'arbidagi Navoiy viloyatida yuqori voltli elektr uzatish liniyasini qurish ("Loyiha") uchun mablag' ajratish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda.

## Loyiha maqsadlari

Bu Loyiha mintaqada elektr ta'minoti tizimining samaradorligi va ishonchligini oshirishga qaratilgan Navoiy viloyatidagi tarmoqlarni kengaytirish dasturining tarkibiy qismi hisoblanadi. Umuman olganda, Loyihani amalga oshirish mahalliy ishlab chiqarish, konchilik va turar-joylarni elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mavjud to'siqlarni bartaraf etishga yordam berishi bilan birga elektr ta'minotidagi yo'qotishlarni kamaytiradi.

## O'tish davri ta'siri

Loyihaning o'tish davridagi kutilayotgan ta'siri asosan ikkita va ular:

- Loyiha tufayli mintaqadagi elektr energiyasi ta'minoti ishonchligi tegishli tarmoq modernizatsiya qilinishi hisobiga sezilarli darajada yaxshilanadi va bu tizimdagi yo'qotishlarning kamayishiga olib keladi. Shuningdek, bank me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish sohasini, jumladan, tizimni moslashtirish va yangilanuvchi energiya manbalarini o'zaro integratsiyasini ham qo'shimcha qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi.
- Bundan tashqari, Bank shamol energiyasini ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha tender savdolarini o'tkazish uchun O'zbekistonning hukumatiga texnik jihatdan ko'maklashadi.

## Mijoz haqida

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati

Yangi tashkil qilingan "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati to'liq ravishda davlat tasarrufidagi energiya ishlab chiqarish kompaniyasi bo'lib, u

"O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyatining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

## YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'

96,100,000.00 AQSH dollari

, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati nomiga, O'zbekiston Respublikasiga beriladigan 96,1 million AQSH dollarigacha bo'lgan kredit mablag'lari

## Loyihaning umumiy qiymati

102,000,000.00 AQSH dollari

## Ekologik-ijtimoiy xulosa

Toifasi – A (ESP 2014). Yuqori kuchlanishdagi havo liniyasini (YKHL) qurish qator potensial ekologik va ijtimoiy ta'sirlar bilan bog'liq bo'lib, u majmuaviy Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD<sup>1</sup>) yordamida baholangan. Bank YTTB ESP dasturi va Yevropa Ittifoqining ekologik ekspertiza bo'yicha direktivasiga muvofiq to'liq tarzda Atrof muhit va ijtimoiy sohaga ta'sirni baholash (ESIA<sup>2</sup>) uchun mustaqil maslahatchini jalb qildi va undan so'ng qator ijtimoiy maslahatlar o'tkazildi. Mazkur Loyiha Atrof muhitga ta'sir bo'yicha milliy baholash (OVOS<sup>3</sup>) bosqichidan o'tib, zaruriy me'yoriy hujjatlarga ko'ra ma'qullandi. ESDD'da tasdiqlanishicha, Loyiha Bankning Loyihani amalga oshirish bo'yicha talablariga muvofiq tuzilgan. ESIA esa 12 iyul 2019 da ko'ra ko'rib chiqilgan.

Loyiha doirasida Navoiy viloyatidagi Navoiy issiqlik elektr stantsiyasining transformator shaxobchasi va "Muruntau" podstantsiyasini (avvalgi EBRDning "O'zbekenergo" bilan loyihasini) birlashtiruvchi 188,5 km uzunlikdagi 500 kV liniyasini qurish ko'zda tutilgan. Uning yo'nalishi asosan cho'l zonasidan o'tgan bo'lib, ozroq qismi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarini kesib o'tgan. Loyiha uchun hech qanday turar joylarni ko'chirish talab etilmaydi. Barqaror iqtisodiy holatdan mahrum qilishni cheklash va hayot faoliyati uchun resurslarni tiklash bo'yuicha tadbirlar Loyiha uchun ishlab chiqilgan Yer sotib olish va hayot faoliyati uchun resurslarni tiklash bo'yicha harakatlar rejasi asosida hal qilinadi

Bunda biologik xilma-xillikni maqbul baholash, ijtimoiy va yerga bo'lgan ta'sirlar, mehnat ekspertizasi, jamlanma ta'sirlar, tegishli obyektlar va manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuv va yer sotib olishni ta'minlashga qaratilgan harakatlar ekologik va ijtimoiy baholashning asosiy yo'nalishi bo'lgan. ESIA'ga muvofiq, Loyihaning ekologik va ijtimoiy ta'sirlari kichik va o'rta darajadagi ekanligi tasdiqlandi. Shuningdek, bu ta'sirlarni ESAP va ESMMP'larni amalga oshirish orqali kamaytirish mumkin.

Ushbu liniyani qurish va ishlatishda biologik xilma-xillikka ta'sir jihatlari, avifaunaga (qushlar faunasi) alohida e'tibor qilingan holda, mustaqil ekspertlar tomonidan baholandi. Uning yo'nalishi hech qanday muhofaza qilinadigan hududni kesib o'tmaydi va migratsiya yo'llari bu liniya bilan bilan parallel joylashgan, shuning uchun elektr toki bilan kesishish va/yoki tok urish xatarlari mazkur liniyaning aksariyat qismida juda past deb baholandi. Ornitologik baholashda liniyaning qushlarga tegib ketishi mumkin deb hisoblangan qismlari uchun esa himoya vositalari (maxsus belgilar va qushlarni

<sup>1</sup> Environmental and Social Due Diligence

<sup>2</sup> Environmental and Social Impact Assessment

<sup>3</sup> National Environmental Impact Assessment

haydab yuborish uchun alohida uskunalar) taklif qilingan va bu Loyihaning yakuniy ko'rinishiga kiritiladi. Qushlarning muntazam monitoringi keyingi qurilish ishlari paytida davom ettiradi va zarur bo'lganda qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

YKHL qurilishi va o'rnatilishi bilan bog'liq asosiy ekologik va ijtimoiy xavflar, asosan ishchilarning mehnat gigiyenasi va xavfsizlik texnikasi, pudratchi va ta'minot zanjiri boshqaruvi bilan bog'liq bo'lib, undagi texnologiya va dizaynlar ilg'or sanoat tajribalari hamda eng yaxshi mavjud uslublarga mos bo'lishi ta'minlanishi zarur.

Mazkur liniya odamlar yashamaydigan hududdan o'tganligi va ijtimoiy obyektlardan uzoqda joylashganligi sabab shovqin, chang, elektromagnit maydonlar kabi fizik ta'sirlar kam ekanligi aniqlandi.

Ekologik va ijtimoiy ekspertizaga asosan Bankning Loyihani amalga oshirish bo'yicha talablari tizimlashtirish va zarurat tug'ilganda, institutsional mustahkamlash muammolarini hal qilish uchun Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP<sup>4</sup>) ishlab chiqilgan. Ushbu harakatlar rejasi, xususan, korporativ ekologik, mehnat gigiyenasi va xavfsizlik texnikasi va ijtimoiy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, qushlarni himoya qilish qurilmalarini o'rnatish va qushlarni mavsumiy monitoring qilish, ta'minot zanjiri boshqaruvi va qurilishdagi xavfsizlik, manfaatdor tomonlarning jalb etilishi va shikoyat qilish vositalarini joriy etish, Bank tartib-qoidalariga ko'ra yer sotib olish tartiblarini amalga oshirish va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Atrof muhit va ijtimoiy sohaga ta'sirni baholash hujjatlarining tarkibiy qismi sifatidagi Hisobotning qisqacha mazmuni (ruscha va inglizchada), Manfaatdor tomonlarning jalb etilish rejasi, Ekologik va ijtimoiy boshqaruv hamda monitoring rejasi kabi hujjatlar ishlab chiqilgan va ular quyidagi havolada (<https://www.ebrd.com/work-with-us/projects/esia/uzbekenergo-transmission-upgrade.html>) e'lon qilingan.

Bank loyihani amalga oshirish jarayonini kuzatish va institutsional salohiyatni oshirishga yordam beradi.

## **Texnik ko'mak**

- Ko'rsatilmagan

## **Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot**

“O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati

Hayrulla Yusupov

Loyiha Amalga Oshirish Boshqarma boshlig'i

Toshkent shahri, Istiqlol ko'chasi 6-uy, 100000, O'zbekiston

## **Biznes hamkorlik**

Biznes hamkorligi yoki ta'minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

## **Umumiy so'rovlar**

---

<sup>4</sup> Environmental and Social Action Plan

Xarid masalalaridan tashqari YTTB loyihalariga tegishli ma'lumotlar uchun:  
Tel: +44 20 7338 7168; Fax: +44 20 7338 7380  
Email: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

## **Axborot siyosati**

Axborot siyosati YTTBning strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma'lumotlarni ommaga qanday taqdim etilishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi.

## **Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi**

Jismoniy shaxslar va tashkilotlarning YTTB moliyalashtirgan loyihalarning biror zarar yetkazgani bo'yicha da'volarni yoki yetkazishi mumkin bo'lgan holatlarga oid shikoyatlarni xolisona ko'rib chiqish imkoniyatini yaratish maqsadida YTTB Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasini (PCM<sup>5</sup>) tashkil qilgan.

PCM bo'yicha har qanday shikoyatlar YTTB mablag'lari so'nggi taqsimlangan paytdan boshlab 12 oy ichida berilishi zarur. Agar qachon shikoyat berilishi kerakligi haqida aniq to'xtamga kelmagan bo'lsangiz, yordam uchun shikoyatlar bilan ishlashga ma'sul mutaxassisga ([pcm@ebrd.com](mailto:pcm@ebrd.com)) yoki tegishli YTTB vakolatxonasiga murojaat qilishingiz mumkin.

---

<sup>5</sup> Project Complaint Mechanism